

## “Bizning yer, bizning kelajak” tanlovi yakunlari

Muqaddas tuproq, musaffo havo, zilol suv, o‘z nurini sahiylik ila sochayotgan quyosh – barcha-barchasi tabiatning betakror mo‘‘jizasi. Inson tug‘iliboq ushbu ne‘matlardan bahramand bo‘ladi. Shuning uchun ham uni ona tabiat deb ataymiz. Ona tabiatni, atrof muhitni asrab - avaylash bizning asosiy burchimizdir. Bugun jahon hamjamiyati tabiatni asrab-avaylash, kelajak avlodlarga talofatlarsiz yetkazish yo‘lida yakdillik zarurligini anglab yetdi. “22-aprel – Butunjahon yer kuni” 2021-yil 15-17 aprel kunlari institutimizda “Yer resurslarini boshqarish” fakulteti tomonidan tashkil etilgan “Bizning yer, bizning kelajak” shiori ostida iqtidorli yoshlar o‘rtasida tanlovlar bo‘lib o‘tdi. Tanlovlarning birinchi kuni. “Yer bizning yagona uyimiz” mavzusida rasmlar va innovatsion ishlanmalar ko‘rgazmalari institutimizning iqtidorli talabalari tomonidan 30 dan ortiq rasm va ishlanmalar namoyish etildi.



Tanlovlarning ikkinchi kuni. “Yer jamiyat boyligini manbai” mavzusida intelyulektual o‘yin o‘tkazildi. Tanlovda institutimiz fakultetlaridan 18 jamoa o‘zaro kuch sinashdi. Bir biridan qiziqarli bo‘lgan savollarga barcha jamoalar o‘zlarining bilim salohiyatlarini ishga solib jiddiy bellashdilar. Tanlovlarning uchinchi kuni. “Yerni asliday-asraylik” mavzusida videoroliklar tanlovi bo‘lib o‘tdi. Talabalar tomonidan tayyorlangan 45 ta videoroliklar taqdim etildi. Videoroliklar mazmuni yerlarni asliday asrash sohasidagi dolzarbligi va hozirgi kundagi ahamiyatiga e‘tibor berildi. Fakultetlardan ishtirok etgan ijodkor, tashabbuskor, bilimga chanqoq talabalar o‘zlarining ijodiy ishlari, fotosuratlar, innovatsion ishlanmalar ko‘rgazmasi bilan faol ishtirok etishdi va himoya qildilar, natijalari hay‘at a‘zolari tomonidan munosib baholandi.



Barcha jamoalar iqtidorlari bilan faol ishtirok etishdi hamda ularning bilimlari sinovdan o‘tkazildi. Hay‘at a‘zolari tomonidan jamoalar orasidan 1,2,3 – o‘rinlar aniqlandi. 23-aprel kuni institutimizda “Bizning yer, bizning kelajak” shiori ostida tashkil etilgan tanlovlar g‘oliblarini taqdirlash tadbiri bo‘lib o‘tdi. Har bir nominatsiya bo‘yicha 1, 2, 3-o‘rin g‘oliblari pul mukofotlari va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar. Birinchi o‘rin uchun 1 mln 400 so‘m. Ikkinchi o‘rin uchun 940 ming so‘m. Uchinchi o‘rin uchun 700 ming so‘mlik sertifikatlar har bir g‘olib bo‘lgan talabalarga berildi. Tanlovlarda hamkor tashkilotlar “O‘zdaverloyiha” ilmiy loyihalash instituti, Xalqaro suv resurslarini boshqarish instituti vakillari ishtirok etishdi, homiy tashkilotlar tomonidan qimmatbaho va esdalik sovg‘alari taqdim etildi. Xalqaro yer kuniga bag‘ishlab o‘tkazilgan tanlovlarning taqdirlash marosimi ko‘tarinki ruhda o‘tdi.

**“Yer resurslarini boshqarish” fakulteti iqtidorli talabalar bilan ishlash bo‘yicha mas‘ul S.R.  
Sharipov axboroti**

**TIQXMMI matbuot xizmati**